



## MENEJMENT FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Raxmonova Iroda Fazilovna**

*YTT "Raxmonova Iroda Fazilovna" "At-tilmiiz" ўқув маркази рахбари*  
*[irodarakhmonova18@gmail.com](mailto:irodarakhmonova18@gmail.com)*  
*+998909149080*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada menejment fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Xususan, Frederik Teylor tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy boshqaruv nazariyasining asosiy prinsiplari ko'rib chiqilib, ularning tashkilot samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Menejment fanining dastlabki nazariy asosi sifatida ilmiy boshqaruv maktabining o'rni va ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *menejment, boshqaruv nazariyalari, ilmiy boshqaruv maktabi, Teylor prinsiplari, ishlab chiqarish samaradorligi.*

### **Kirish**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ishlab chiqarish jarayonida ommaviy ishlab chiqarishga o'tish boshqaruv masalalarini murakkablashtirdi. An'anaviy boshqaruv usullari samaradorligini yo'qota boshladgi va natijada yangi boshqaruv shakl hamda mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Shu sharoitda menejment alohida ilmiy fan sifatida shakllandi.

#### **Ilmiy boshqaruv maktabi**

Menejmentning ilk nazariy asoslari XX asr boshlarida Frederik Uinslou Teylor (1856–1915) tomonidan ishlab chiqildi. Teylor konsepsiyasiga ko'ra, samarali boshqaruv to'rtta asosiy prinsipga tayanishi kerak:

Ilmiy asoslangan mehnat jarayoni. Ishlab chiqarishning har bir bosqichi puxta tadqiq qilinib, eng maqbul va samarali usullari aniqlanishi zarur. Bu mehnat resurslari va materiallardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Xodimlarni ilmiy mezonlarga ko'ra tanlash. Bu prinsip orqali ishchilar o'z vazifasiga qobiliyatli, malakali va tegishli bilimga ega bo'lishi ta'minlanadi. Har bir lavozim uchun aniq mezon asosida nomzodlarni tanlash tizimi joriy etilishi kerak.

Ilmiy asosda o'qitish va malakani oshirish. Tanlangan xodimlar doimiy ravishda o'qilib, ularning kasbiy ko'nikmalari rivojlantiriladi hamda yangi texnologiya va uslublarni o'zlashtirishga sharoit yaratiladi. Natijada, ish sifati va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

Ma'muriyat va xodimlar o'rtasida samarali hamkorlik. Tashkilot ichida do'stona muhit yaratilib, jamoaviy ruh mustahkamlanadi, ish jarayoni uyg'unlashadi. Bu tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishni osonlashtiradi va xodimlarning motivatsiyasini oshiradi.

Ilmiy boshqaruv maktabi - menejmentning ilk nazariy asoslari 20-asr boshlarida Frederik Uinslou Teylor (1856-1915) tomonidan ishlab chiqildi. Uning konsepsiyasiga

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ko'ra, tashkilot boshqaruvi samarali bo'lishi uchun to'rtta asosiy prinsipga qat'iy tayanishi zarur. Birinchidan, ishlab chiqarish jarayonining ilmiy asoslarini yaratish muhimdir. Bu degani, har bir ish bosqichi aniq va puxta tadqiq etilib, ishni bajarishning eng maqbul, samarali usullari aniqlanishi lozim. Shunday qilib, mehnat resurslari va materiallardan oqilona foydalanish ta'minlanadi.

Ikkinchidan, tashkilotda ishlovchi xodimlarni tanlashda ilmiy mezonlarga asoslanish kerak. Bu prinsip xodimlarning o'z ishlariga qobiliyatli, malakali va tegishli bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir lavozim uchun mos nomzodlarni aniq belgilangan mezonlar asosida tanlash tizimini joriy etish zarur.

Uchinchidan, tanlangan xodimlarni ilmiy asosda o'qitish va ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borish lozim. Bu ishchi-xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, yangi texnologiya va uslublarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ish sifati va ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

To'rtinchidan, ma'muriyat va ishchi xodimlar o'rtasida do'stona va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu prinsip tashkilot ichida ijobjiy muhit yaratishga, jamoaviy ruhni kuchaytirishga va ish jarayonini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Bunday hamkorlik tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishni osonlashtiradi va xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Umuman olganda, ushu prinsipler asosida tashkilot boshqaruvi nafaqat ilmiy asosga ega bo'ladi, balki uning samaradorligi va barqarorligi ham ta'minlanadi. Teylorning ta'kidlashicha, menejmentning asosiy vazifalari - ishlarni adolatli taqsimlash, aniq vazifalarni belgilash, mehnat texnologiyalarini optimallashtirish, samarali ish uchun rag'batlantirish tizimini joriy etish va natijasiz mehnatni cheklashdir.

Ma'muriy (klassik) maktab - 1916-yilda Anri Fayol "menejmentning otasi" sifatida e'tirof etilib, boshqaruvni, ayniqsa, ma'muriy apparat faoliyatini samarali tashkil etish tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning nazariyasi zamonaviy tashkilotlar boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Inson munosabatlari va xulq-atvor fanlari maktabi - 1940-yillarda Meri Parker Follett va Elton Mayo boshchiligidagi tadqiqotlar inson omilining boshqaruvdagagi ahamiyatini o'rganishga qaratildi. Ular samarali boshqaruvning asosi - jamoada qulay psixologik muhit yaratish, ijodiy faollikni rag'batlantirish va ierarxik byurokratiyaga asoslanmagan boshqaruv tamoyillarini joriy etish ekanligini isbotladilar.

Miqdoriy yondashuv - 20-asrning o'rtalaridan boshlab, ilmiy-texnik inqilob ta'sirida menejmentda aniq fanlar (matematika, statistika, mantiq, kibernetika) yutuqlaridan foydalanila boshlandi. Bu yondashuv murakkab boshqaruv muammolarini modellashtirish va samarali yechimlar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Umumi boshqaruv nazariyasi va ta'lim menejmentining rivojlanishi - 1950-yillarning oxiridan 1970-yillargacha maktab ta'limi boshqaruvining nazariy asoslari shakllana boshladi. Bu davrda boshqaruv konsepsiyanlarini ijtimoiy fanlar (sotsiologiya, psixologiya, falsafa) yutuqlari bilan boyitish jarayoni yuz berdi. Ayniqsa, tizimli yondashuv g'oyalari (Yu.A. Konarjevskiy va boshqa olimlar) ta'lim menejmentining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Situatsion yondashuv - 1960-yillarda vujudga kelgan situatsion yondashuvga ko'ra, samarali boshqaruv usullari va strategiyalarini muayyan vaziyatlarga mos holda tanlash zaruriyati e'tirof etildi. Boshqaruv qarorlarini vaziyatning o'ziga xos sharoitlari va omillari asosida ishlab chiqish tamoyili ilgari surildi.

1980-1990-yillar: nazariy rivojlanish va ta'lismenejmenti

Ushbu davrda ta'lismenejmenti boshqaruvi nazariyalarini chuqurlashtirishga va amaliyotga keng tafbiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar e'lon qilindi. Masalan: T. Bush - "Ta'linda menejment nazariyalari" (1986), P. Silver - "Ta'limni boshqarish" (1983), K. Evers va G. Lakomskaya - "Ta'limni boshqarishni tushunish" (1991), V. Rust - "O'qituvchilar uchun menejment qo'llanmasi" (1985), J. Dean va R. Blatchford - "O'rta maktab boshqaruvi" (1985) va boshqa asarlar. 1990-2000-yillar: innovatsiyalarni boshqarish - Mazkur davrda menejment ilmida innovatsiyalarni boshqarish masalalari dolzarb mavzuga aylandi. Innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlar shakllantirish orqali tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish muhim yo'naliш sifatida e'tirof etildi. Bu boradagi nazariy asoslar N. Monchev, I. Perlaki va Xartman V.D. tomonidan ishlab chiqildi.

Innovatsion boshqaruvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: Yangi mahsulotlar yaratish; Yangi xomashyo turlarini qo'llash; Yangi texnologiyalarni joriy etish; Tashkilot tuzilmasini takomillashtirish; Yangi bozorlarni rivojlantirish.

1997-yil: Gumanistik pedagogika - 1997-yildan boshlab ta'lumuhiti gumanistik va zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilina boshlandi. Tadqiqotchi Yu. S. Manuilovning fikricha, zamonaviy ta'lumuhiti tashkil etishda ekologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. "Pedagogik menejment" atamasi insonparvarlik va demokratik tamoyillar asosida shakllanib, boshqaruv subyektlari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan boshqaruv munosabatlarini nazarda tutadi.

Menejment konseptsiyalarining shakllanish qonuniyatları - N.D. Kondratyev tomonidan ishlab chiqilgan texnologik rivojlanishning ellik yillik tsikllari hamda K. Juglyarning o'n yillik iqtisodiy tsikllari doirasida boshqaruv nazariyalarining shakllanishi va o'zgarish tendensiylari aniqlangan. Ushbu qonuniyatlariga tayangan holda, 2000-yillarga kelib, boshqaruvda maqsadlar bo'yicha boshqaruv (Management by Objectives - MBO) konsepsiyasining ustuvor ahamiyat kasb etishi kuzatildi.

Zamonaviy boshqaruv nazariyaları - 2000-yillarda maqsadlar bo'yicha boshqaruv konsepsiysi jadal rivojlandi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyili - aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun tashkilot tizimini moslashtirish, xodimlarni ushbu maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan motivatsiya tizimi orqali boshqarishdan iboratdir. Menejment nazariyalarining rivojlanish qonuniyatları shuni ko'rsatmoqdaki, 20-asr boshlaridagi ilmiy yondashuv tamoyillari 21-asr boshidagi maqsadlar bo'yicha boshqaruv g'oyalarida o'z ifodasini topmoqda.

Axborot texnologiyaları va menejment - Zamonaviy davrda axborot texnologiyaları (AT) uzluksiz rivojlanmoqda hamda barcha sohalarda, jumladan, menejment amaliyotida ham keng qo'llanilmoqda. Ulkan hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, kelgusidagi

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

tendensiyalar va hodisalarni prognozlash imkonini beruvchi sun'iy intellekt va analitik vositalarning ahamiyati ortib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Афанасьев В.Я. Теория менеджмента: учебник и практикум для акад.бакалавриата. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. 665 с.
2. Габышева Наталья Владимировна Образовательный менеджмент: понятие и сущность. //Материалы Всероссийской научно-практической конференции “Наука и социум”, №. 7-1, 2018, 29-31 с.
3. Гончаров М. А. Основы менеджмента в образовании: учебное пособие /М.А. Гончаров. – 3-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 476 с.
4. Максимцова М.М., Комарова М.А. Менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2002. – 359 с.
5. Райченко А.В. Общий менеджмент: Учебник. – М.: ИНФРА, 2012. 383 с.
- Сетков В.И. Основы общего менеджмента (краткий курс) / В.И. Сетков. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 169 с.
6. Поршнева А.Г., Румянцевой З.П., Саломатина Н.А. Управление организацией: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 716 с.

